

**MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARGA ILK TEJAMKORLIK
TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH**

Xaydarova Shaxlo Narzullayevna

Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti, PhD

E-mail: xaydarovashaxlo@mail.ru

O'rinova Nusxa Bahromovna

Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk iqtisodiy tushunchalarni o'rgatish orqali, ularda tejamkorlik, ishbilarmonlik, uddaburonlik kabi sifatlarni shakllantirish bayoni berilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy bilim, tejamkorlik, ishbilarmonlik, uddaburonlik moddiy ne'mat, moddiy farovonlik, oila byudjeti, iqtisodiyot.

Аннотация: В данной статье описано формирование таких качеств, как бережливость, деловая хватка, настойчивость у детей дошкольного возраста путем обучения их первым экономическим понятиям.

Ключевые слова: Экономическое образование, экономические знания, бережливость, предпринимательство, находчивость, материальный достаток, семейный бюджет, экономия.

Abstract: This article describes the formation of qualities such as frugality, business acumen, perseverance in preschool children by teaching them the first economic concepts.

Key words: Economic education, economic knowledge, thrift, entrepreneurship, resourcefulness, material well-being, family budget, economy.

Bugungi zamonaviy hayotning bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday yoshdagi odam muvaffaqiyatli bo'lishi uchun moliyaviy savodxon bo'lishi lozimdir. Bu esa, o'z navbatida iqtisodiy bilimlar asoslarini maktabgacha yosh davridan boshlashni taqozo etadi.

Bolalarni yoshlik chog'idan boshlab tevarak-atrofdagi moddiy ne'matlarga, buyumlarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga, har qanday moddiy ne'mat inson mehnatining mahsuli ekanligini tushuntirish va uni asrab-avaylashga o'rgatib borish zarur. Bolaning jamoatchilik va shaxsiy buyumlarga bo'lgan munosabati ilk yoshlik chog'idanoq oilada, oila a'zolarining shaxsiy va jamoatchilik mulkiga bo'lgan munosabatidan boshlanadi. Albatta, yosh avlodda tejamkorlik, ishbilarmonlik, uddaburonlik kabi sifatlarni shakllantirmasdan turib barkamol shaxsni tarbiyalab bo'lmaydi. Chunki aynan shu sifatlarda bolaning inson mehnati mahsuliga, jamoatchilik mulkiga to'g'ri munosabati, uni asrab-avaylash, boyitishga hissa qo'shish

istagi bo‘ladi. O‘zib borayotgan yosh avlodda bunday sifat va fazilatlarni shakllantirish ko‘p jihatdan tarbiyachining kasbiy tayyorgarligiga, pedagogik mahoratni qay darajada egallaganligiga bog‘liqdir.

Iqtisodiy bilimlarga egalik bolalar tomonidan iqtisodiy ishlab chiqarish jamiyat xayotining asosiy yo‘nalishlaridan biri ekanligini chuqur anglashiga imkon berish bilan birga ularda mavjud moddiy va ma‘naviy ashyolar, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish, ularni ko‘paytirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, jamiyat iqtisodiyotini rivojlantirish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish hamda oila xo‘jaligini oqilona yuritish borasidagi dastlabki ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga imkon beradi.

Ma‘lumki, «iqtisod» so‘zining ma‘nosi keng bo‘lib, chuqur mazmunga ega. Ko‘p o‘rinda bu so‘z xalq ichida “tejamkorlik” so‘zining sinonimi sifatida qo‘llaniladi. “Iqtisod” tushunchasiga, mashhur o‘zbek muayyami Abdulla Avloniy quyidagicha ta‘rif beradi: “Iqtisod deb pul va mol kabi na‘matlarning qadrini bilmakka aytilur”.

Shunday ekan, bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy faol va ijodkor shaxsni shakllantirish va tayyorlash hayotiy zaruratdir. Shuni ham aytish joizki, bolaga iqtisodiy tarbiya berish masalasi qadim-qadimdan pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo‘lib kelgan. O‘tmishimizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, otabobolarimiz buyuk ipak yo‘li orqali savdo-sotiqni, mol ayirboshlashni yo‘lga qo‘yganlar. Bu tufayli esa ishlab chiqarishni rivojlantirish, moddiy farovonlikni oshirishga, fan, adabiyot, madaniyat sohasidagi yangiliklardan bahramand bo‘lishga erishganlar.

Maktabgacha yoshidagi bolalarga tejamkorlik haqida ta‘lim-tarbiya berishda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Tejamkorlik haqida so‘z ketganda isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslikni bolalarga tushuntirishimiz kerak.

Tejamkorlik qoidalarni bayon qilib berishda o‘yin usullaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

Tejamkorlik saboqlari integratsiyalashgan mashg‘ulot tarzida: atrof- muhit, tabiat bilan tanishtirish, badiiy adabiyot, odobnoma, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini mujassamlashtirgan holda olib boriladi.

Inson hayotiy tajribasi, bilimi, odob axloqi, xatti-xarakati bilan o‘zining ma‘naviy-ruhiy olamini boyitib boradi. Iqtisodiy bilimlarga egalik bolalar tomonidan iqtisodiy ishlab chiqarish jamiyat hayotining asosiy yo‘nalishlaridan biri ekanligini chuqur anglashiga imkon berish bilan birga ularda mavjud moddiy va ma‘naviy ashyolar, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish, ularni ko‘paytirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, jamiyat iqtisodiyotini rivojlantirish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish hamda oila xo‘jaligini oqilona yuritish borasidagi dastlabki ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga imkon beradi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini iqtisodiy tarbiya asosida tejamkorlikka o‘rgatish tarbiyachidan katta ma‘suliyat talab etadi. Chunki bola deyarli

har kunining asosiy vaqtini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkazadi. Yana shuni ham aytib o'tish joizki, Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat tarbiyachi shaxsi shakllanishida uning ijodkor bo'lishi uchun zamin yaratmoqda.

Shunday ekan, bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy faol va ijodkor shaxsni shakllantirish va tayyorlash hayotiy zaruratdir. Shuni ham aytish joizki, bolaga iqtisodiy tarbiya berish masalasi qadim-qadimdan pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo'lib kelgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi tomonidan olib boriladigan mashg'ulotlar har bir bolaning ruhiyatiga alohida ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyalanuvchilarga tejamkorlik tushunchalarini Tarbiyachi tomonidan bolalarga oila byudjeti va xo'jaligini o'rgatish bo'yicha ma'lumot beramiz:

Oila byudjeti va xo'jaligi.

Bizning mavzuni o'rganishda oila byudjeti va xo'jaligi, uni rejalashtirish, ota-ona, bolalar o'rtasida ishlarning taqsimlanishi va oilaning iqtisodiy manbai xususida fikr yuritilib, tarbiyalanuvchilarda oila byudjetining daromadi va harajati, oila xo'jaligini boshqarish kabi tushunchalar shakllantiriladi.

Tarbiyachi mashg'ulotning tashkiliy qismidan keyin quyidagi ikki lavhani o'qib beradi:

Iqtisod.

Pul va molni kerakli, zarur narsalarga sarflagandan keyin qolgan puldan bir qismini kelgusi kunlar uchun saqlash lozim. shunday qilinsa, doimo iqtisod qilib borilsa, katta sarmoya hosil bo'ladi.

Iqtisod qilishga, tejashga odatlangan odamlar saodat va tinchlik bilan umr kechiradilar. To'g'ri, yaxshi yoyish, ichish, kiyish kerak, ammo «ko'rpangga qarab oyoq uzat» naqliga amal qilinsa, boshqalarning narsalariga ta'na qilinmaydi, ko'ngil ham hotirjam bo'ladi. Qo'lida bo'lgan pulga, mulka qanoat qilmagan odamning nafsi butun dunyo moliga ham qanoat qilmaydi.

Isrof.

Isrof – o'rinsiz foydasiz ishlarga pul va mol sarflashdir. Qo'ldagi pul va molni kerakli joylarga sarflash, yaxshi idora qila olish, isrofgarchilikdan saqlanish lozim. Shuhrat qozonish uchun to'y va ziyofatlar qilib, pul sarf etish nodonlikdir. Isrof natijasida yo'qchilik, keyin har kimning mol, davlatiga ta'na va hasad qilish kelib chiqadi.

Bayt:

Sen agar isrof etishni tashlading,

Ul zamon davlat etagin ushlading.

Tarbiyalanuvchilarning ana shu ikki lavha xususidagi fikrlari umumlashtirilib, davom etiladi. Bolalarni tejamkorlik ruhida tarbiyalash va uni amalga oshirishda topishmoq, maqol, ertaklardan ham foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirish orqali kelajakda ularga o‘z mehnatini qadrlashni, baholashni o‘rganadi va mustaqil belgilash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A‘zamova M.N. Maktabgacha pedagogika.// 5111800 - Maktabgacha ta‘lim bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik. – Toshkent, 2019.
2. Abduraxmonova X. “Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda rivoyatlar orqali tejamkorlik tushunchalarini shakllantirish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi. Termiz 2017 y 25-b.
3. “Iqtisodiy bilimlar sari” A.Z.Toshqo‘ziyeva. Toshkent 2009
4. Ibraimov Xolboy Ibragimovich, Khaydarova Shakhlo Narzullaevna, Organizational pedagogical principles of education of pre-school children in the inclusive education system. Science and innovation international scientific journal volume 2 ISSUE 11 November 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10143278>
5. Haydarova Shakhlo Narzullayevna. Strategies for improving children's tourism in the preschool education system. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. For joining Editorial Board of Journal of Pedagogical Inventions and Practices, Plano, Texas 75024, U.S.A. November - 2024
6. S.B.Sanayeva, Sh.N.Xaydarova “Maktabgacha ta‘lim va tarbiyani tashkil etish”. Darslik. T-2023 yil.